

## KO'CHMA MA'NOLI BIRLIKLARDA MILLIY MENTALITETNING AKS ETISHI

**Abdurasulova Jumagul Abdusalom qizi**

*QDPI magistranti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ko'chma ma'noli birliklarda milliy mentalitetning aks etishiga doir ma'lumotlar berib o'tilgan. O'zbek millatiga mansub til egalari nutqida ko'chma ma'noli birliklarning qay tarzda ifodalanishi misollar yordamida tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ko'chma ma'noli birliklar, lingvokulturologiya, lingvokulturema, ibora, konseptosfera.*

**Абстракт:** *В данной статье представлена информация об отражении национального менталитета в портативных устройствах. С помощью примеров проанализировано, как образные единицы выражаются в речи носителей узбекского языка.*

**Ключевые слова:** *единицы переносного значения, лингвокультурология, лингвокультурема, словосочетание, концептосфера.*

**Abstract:** *This article provides information on the reflection of the national mentality in portable units. The way in which figurative units are expressed in the speech of Uzbek language speakers has been analyzed with the help of examples.*

**Key words:** *units of portable meaning, linguoculturology, lingvokulturema, phrase, conceptosphere.*

Bizga ma'lumki, kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatning muhim birliklaridan biri "konsept" hisoblanadi. Bugungi kunda u ko'plab tadqiqotchi olimlarning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. Konsept terminini tahlil qilish davomida, tadqiqotchilar quyidagicha xulosaga kelishdi: Konsept nafaqat ierarxik tizimning lingvomadaniy sohalariga asoslanibgina qolmay, balki biror bir xalq va millatning madaniyatini o'zida aks ettiradi. "Kontsept" - shaxsning bilimlari va tajribasi namoyon bo'ladigan hamda u bilan birga o'z faoliyatini ko'rsatadigan mavhum birlikdir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, o'zbek tilidagi "Fe'l-atvor" konseptosferasini kognitiv nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida „Fe'l-atvor“ atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Fe'l-atvor, xarakter — shaxsning atrof muhitga va o'zo'ziga munosabatida namoyon bo'ladigan individual xususiyati. Har bir kishining fe'l-atvorida uning bosib o'tgan hayot yo'li aks etadi. Kishining Fe'l-atvorini bilib, ma'lum vaziyatda o'zini qanday tutishini oldindan ko'rish va uning xattiharakatini to'g'ri yo'naltirish mumkin. Fe'l-atvor xususiyatlarining 4 ta tizimi bor: 1) ayrim insonga, guruhga, jamoaga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik qilish, talabchanlik va boshqalar); 2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish va boshqalar); 3) narsa va ashyolarga

nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalarni ayash yoki ularga ehtiyotsizlik bilan yondashish va boshqalar); 4) insonning o'zo'ziga nisbatan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzatnafslilik, shuhratparastlik, dimog'dorlik, kamtarlik va boshqalar). Fe'l-atvorning xususiyatlari tug'ma va o'zgarib boradigan xususiyatlar emas, u insonning turmush sharoitlariga bog'liq holda tarkib topib, o'zgarib boradi, takom illashadi. Fe'l-atvorning shakllanishida bir necha turli ruhiy ta'sirlar mavjud bo'lib, ularning ichida odat muhim ahamiyat kasb etadi. Fe'l-atvor umumbashariy sifatlar bilan cheklanib qolmasdan, milliy va etnopsixologik xususiyatlarga ham ega. Masalan, o'zbek millatining o'ziga xos milliy fe'l-atvor xislatlari mavjud. Fe'l-atvor sifatlari turmush jarayonida tarbiya, mexnat va ijtimoiy sharoit ta'siri bilan ma'lum darajada o'zgaradi. Uni yaxshi tomonga o'zgartirishda axloqning ijtimoiy me'yorlarini o'zlashtirish, o'zo'zini tarbiyalash ham katta ahamiyatga ega. Fe'l-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhit va tarbiyaning ta'siri ayniqsa kuchli.<sup>32</sup> Ko'chma ma'noli birliklarning milliy mentalitetda aks etishi haqida gapirilganda millatning o'ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti masalalariga to'xtalmay ilojimiz yo'q, albatta. Chunki xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari, frazeologik birliklar, nutqqa tayyor holatda olib kiriluvchi vositalar xalqning mentalitetini ifodalashda oldingi o'rinda turadi. Maqollar xalq poetik ijodiyotining bebaho namunasi sanalib, ana o'sha xalqning milliy – madaniy xususiyatlarini, o'ziga xosliklarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos olim Dal aytganidek, “maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati”.<sup>33</sup>

Quyida „fe'l-atvor“ konseptosferasidagi ko'chma ko'chma ma'noli birliklarning milliy mentalitetda aks etishini ko'rib chiqamiz. O'zbek xalq maqollarida saxiyning hayriga baxilning boshi og'rir degan maqol bor. Ushbu maqolning mazmuni yaxshilik, saxovat qilmaydigan insonlar saxiy insonlarni ko'ra olmaydilar degan mazmun kelib chiqadi. Hamda ularning saxovatni ko'rgandagi holatiga „boshi og'rimoq“ birikmasi orqali baho beriladi. Ma'lumki, xalqimizda „boshi og'rimoq“ birikmasi salbiy bo'yoqqa ega hisoblamadi. U o'z ma'nosida bosh qismidagi og'riqni ifodalaasa, ko'chma ma'noda „jahlini chiqarmoq“, „ensasini qotirmoq“, „biror narsani yoqtirmaslik“ ma'nolarida ham qo'llanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan maqolda ham ushbu birikmaning „ensasi qotmoq“ ma'nosi qo'llaniladi. Rus tilidagi „иметь головную боль“ ya'ni „boshni og'ritmoq“ birikmasi faqatgina o'z ma'nosida qo'llanadi. O'zbek millatiga mansub kishilar ongida esa ushbu birikmaning yuqorida sanabo'tilgan ma'nolari ham mavjud bo'lib, so'zni bir qancha semalarini ifodalab

<sup>32</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2000-2005-йиллар.

<sup>33</sup> 1. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 С.

keladi. Misol uchun Abdulla Oripov qalamiga mansub quyidagi she'ni ko'rib chiqamiz:

Ko'zni bedor etma behuda ishga,  
Har bo'lar bo'lmasga og'ritma boshing.  
G'amlar suyagini bosmagin tishga,  
Tashvish bo'yog'ida og'ritma boshing.  
Kelmas bo'lib ketdi o'tgan u kun,  
Alloh bo'lgan edi kechagi kafil.  
Ul zot kifoyadir ertalik uchun,  
O'zingga ortiqcha zo'r berma, axir.

Yuqorida keltirilgan misolda „bosh og'ritmoq” birikmasining „o'zini ko'p urintirmoq, biror ishga jon-jahdi bilan kirishmoq” ma'nolari ifodalangan. Ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilida „bosh og'ritmoq” birikmasining bir nechta ma'nolari mavjud bo'lib, ular faqatgina o'zbek millatiga xos tushunchalarni ifodalaydi.

Badiiy asarlarda qahramon harakterini yorqinroq ko'rsatish maqsadida ijodkor ko'chma ma'noli birliklardan ko'p o'rinlarda foydalanadi. Misol uchun Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar” romanidagi quyidagi jumlagina e'tibor qilaylik:

„Hasanali o'tkan faslda Homidning o'z og'zidan xotinlariga qarshi qamchi ishlatkanini eshitkan edi. Shunga binoan uning bu oxirgi jumlasini Homidni yerga qaratib, lom deyishka majol bermay qo'ydi. Ziyo shohichi qaynisi Homidga «Tuzlatildingmi?» degandek qilib qaradi va Hasanalidan afu so'radi:

— Kechirasiz, ota, — bizning Homidboy shunaqa qo'lansa gaplar uchun yaratilgan

odam. Qutidor ham Hasanalining ko'nglini ko'tarib tushdi:

— Gapingiz to'g'ri, ota, — dedi, — Otabek xon qizig'a loyiq bir yigit ekan. Bahslashish uchun Homidga yo'l qolmag'an edi. Bir turlik iljayib yer tegidan

Hasanaliga ko'z tashladi. Oshdan keyin boshlab Homid, so'ngra boshqa mehmonlar tarqalishdilar. Otabek bilan qutidorning yo'llari bir bo'lg'anliqdan birgalashib ketdilar. Qutidor havlisiga qayrilar ekan, bek bilan xayrlashdi:

— Albatta, birisi kun biznikiga marhamat qilasiz, tuzikmi?

— Xo'b, amak.”

Yuqoridagi parchada Ziyo shohichi tilidan Homidga nisbatan ishlatilgan „qo'lansa gaplar uchun yaratilgan odam” ta'rifi ortiqcha qiyinchiliklarsaiz salbiy qahramon obrazini tasvirlab bergan. O'zbek halqida yoqimsiz gapni „achchiq so'z”, „sassiqlik gap”, „gapingiz hidi chiqdi”, „Hamisha qo'lida sarimsoqpiyoz ko'tarib yuradi” singari birliklar bilan ifodalash holatlari mavjud. Abdulla Qodiriy ham o'zbek tilining imkoniyatlaridan unumli foydalanadi va obraz fe'l – atvorini juda go'zal holatda tasvirlaydi.

Rus tilida qo'llaniluvchi „ неприятное слово”, „ ругательство” birikmalari faqatgina yoqimsiz so'z ma'nosini ifodalab kelsa, ingliz tilidagi „dirty word” birikmasi la'nat, so'kinish ma'nolarida ishlatiladi. Ammo Abdulla Qodiriy qo'llagan „qo'lansa

so'zlar uchun yaratilgan odam" birikmasi faqatgina o'zbek tiliga xos bo'lib, o'zbek mentalitetiga oid holatda qahramon harakterini yoritishga xizmat qilgan.

Abdulla Qodiriy „O'tkan kunlar" asarida qahramonlar harakterini yoritish uchun ko'chma ma'noli birliklardan juda ko'p o'rinlarda foydalanagan. Misol uchun asarning „Xushro'ybibi va Zaynab" qismida shunday yozadi:

„Xushro'ybibi Zaynabning egachisidir. Mohirabonudan ikki o'g'ul va ikki qiz dunyog'a kelib, to'ng'uchi Azimbek, undan keyingisi Xushro'y (yoshlig'ida Xushro'y o'rniga Xushra der edilar), uchunchisi Karimbek va to'rtinchisi bizning Zaynab edi. Zaynab egachisi Xushro'ydan yetti yosh chamasi kichik edi. Garchi bu ikki egachisingil bir qorindan talashib tushkan bo'lsalar ham, sajiya — xarakterda tanib bo'lmasliq darajada birbirlaridan farqlik edilar. Sajiyadagina emas, surat va siymo vajida ham katta o'zgaliklari bor edi. Xushro'y uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik edi. Xushro'yning harakati yengil va lavzi tez edi. Zaynab loppos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradig'an edi. Xushro'yning ko'zi o'ynab, har sekuntda o'n yoqqa alang'lar edi. Singlisi bo'lsa birav bilan betma-bet kelib so'zlashqanida ham ko'zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. Xushro'yga bolaliq chog'idayoq uy ichi va qo'ni-qo'shni «shaddod» deb ism berganlar, chunki ul kimdan bo'lsa-bo'lsin, aytkanini qildirmay qo'ymas, agar birarta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin-suronni xudda boshig'a kiyib olar edi. Shuning uchun Xushro'yning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapka og'iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi. Zaynab egachisining aksicha o'z yaqinlaridan «pismi» deb ism olg'an, onasi bo'lsa achchig'i chiqq'anda «ming'aymas o'lgur» deb uni qarg'ar edi. Ayniqsa quyida zikr qiladig'an holimiz bu ikki opa-singilning xarakteridagi farqlarini ochib ko'rsatish uchun yetadir" Abdulla Qodiriy Xushro'yga ta'rif berar ekan uni „harakati yengil" va „lavzi tez" sifatlari bilan tasvirlaydi. Ma'lumki, o'zbek xalqida so'zga, uning qudratiga alohida e'tibor beriladi. Biror muhim ish yuzasidan yigitlardan „lavz" ya'ni va'da olinadi. „Lavzingizga ishondim", Lavzi halol" singari birikmalar ham xalqimizda so'zning naqadar aziz ekanligidan dalolat beradi. „Lavzi tez" birikmasi ham so'zga oid bo'lib, qahramonning so'zi achchiq, keskir ekanligini ifodalaydi. Mazkur birikma faqatgina o'zbek tiliga xos bo'lib, boshqa tillarda aynan tarjimaga ega emas. Ingliz tilga avtomatik ravishda tarjima qilinganida ushbu birikma „the word is fast" shaklida tarjima bo'ladi. Uning ma'nosi esa „tez so'z", „tez so'zlamok" ma'nolariga teng keladi. Ushbu o'rinlarda qahramonga xos bo'lgan sharttakilik, so'zamollik, jizzakilik sifatlari yo'qoladi. Muallloif Xushro'yga ta'rif berar ekan, uni „ko'zi o'ynab bir sekuntda o'n yerga qaraydigan" deydi. „Ko'zi o'ynamok" birikmasi metafora usulida hosil qilingan bo'lib, bu ham faqatgina o'zbek tiliga xos birlik sanaladi. Lingvokulturemalar xalqning o'ziga xos madaniyatini uning til birliklari orqali aks ettiruvchi lisoniy hodisalardir. V.A.Maslova ularni o'rganuvchi fan tilshunoslik va madaniyatning kesishishida paydo bo'lganini va u «Lingvokulturologiya» deb atalishini, bu fan millat madaniyatini tilda aks ettirish va

mustahkamlash masalasini o'rganishini qayd etib, uning asosiy yonalishlarini belgilab ko'rsatgan, tasnifini amalga oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, ko'chma ma'noli birliklarda milliy mentalitet turli xalqlar tillarida turlicha aks etadi. O'zbek tilidagi ko'chma ma'noli birliklarda milliy mentalitetning aks etishini yuqoridagi misollar orqali ko'rib chiqdik. Ko'chma ma'noli birliklar har bir xalq tiida o'sha xalqqagina xos bo'lgan odatlar, an'analarga bog'liq holda shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании / Филологические науки. 2001. №1. - С. 64.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология.—М.:»академия», 2001.-с.208
3. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi.// Tanlangan asarlar. 3 jildli. 2-jild. – Toshkent; Akademnashr, 2012. – 5-son. – B-3-16
4. Maslova V.V. Lingvokulturologiya v Sistema gummanitarnogo znaniya / Kritika I semiotika. Vip. 4. – 2004. – С 238-243;